Turkiyada Amir Temurga bag’ishlangan simpozium o’tkazildi

Joriy yilning 29-30-noyabr kunlari Turkiyada Ege universiteti hamda O’zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bilan hamkorlikda “Amir Temur va Izmir” simpoziumi o’tkazildi. Simpoziumda O’zR FA Tarix instituti olimlari, shuningdek, Turkiya, Ozarbayjon, Eron davlatlari tadqiqotchilari ishtirok etdi. Simpoziumning tantanali ochilish marosimida Turkiya va O’zbekiston davlatlari madhiyasi yangradi. Simpozium Ege universiteti rektori, professor Nejdet Budakning kirish so’zi bilan boshlandi. Rektor o’z tabrik so’zida izmirliklar Amir Temur shaxsiyati haqida gapirar ekan, mazkur simpozium birinchisi va davomiy bo’lishini, uzviy hamkorlik davom etishini ta’kidladi. Shuningdek, Amir Temur nomini abadiylashtirish maqsadida Izmir ko’chalari, madaniy joylarga uning nomini berish taklifini bildirishdi.

Simpoziumda FA Tarix institutining ilmiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari Sherzodxon Maxmudov so’zga chiqib, Amir Temur tarixi haqida xorijliklar tomonidan yozilgan bir yoqlama manbalardan voz kechib,

qardosh xalqlar olimlari bahamjihat qayta tadqiqotlar olib borishini va uni jahonga, xususan, turk dunyosiga targ’ib etishi kerakligini qayd etdi.

To’rtta sho’baga bo’lingan holda ish olib borilgan simpoziumda yangi ilmiy tadqiqotlarga bag’ishlangan ma’ruzalar tinglandi. Unda N.Allayeva “Xorazm solnomalarida Amir Temur shaxsi tavsifi”, J.Adilov “Amir Temur xastaligiga doir arxiv manbasi”, V.Xolov “XIX-XX asr boshlari G’arb manbalarida Temuriylar davri tarixi: talqin va tahlil”, N.Gulboyev “Amir Temur va Rum: harbiy yurish tafsilotlari”, H.Mamadaliyev “Turon shaharsozligi rivojida Amir Temurning hissasi”, M.Darmonova “Temurilarlar davri: xattotlik san’ati va namoyondalari”, X.Jumanazarov “Amir Temur davrida tabobat ilmi ravnaqi”, S.Nazarova “A.Fitrat asarlarida Amir Temur obrazi” kabi dolzarb mavzulardagi ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Mazkur simpozium Amir Temur shaxsiyati va tarixini chuqurroq o’rganish, yangi tadqiqotlarni yuzaga chiqarish, ilmiy hamkorlikni mustahkashlash hamda xalqlarimizni yanada yaqinlashuviga xizmat qiladi.